



XITOIY BANKLARINING YASHIL OBLIGATSIYALAR EMISSIYASI TAHLILI

ANALYSIS OF THE GREEN BOND ISSUANCE OF CHINESE BANKS

**¹Bo'riyev Jamshid
Parda o'g'li**

¹O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil
izlanuvchisi, PhD. **ORCID:** 0009-0009-7645-4934,
G-mail: burievjamshid102@gmail.com

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada Xitoy banklarining yashil obligatsiyalar emissiyasi tahlilini amalga oshirishda yashil obligatsiyalar amaliyotiga oid turli ilmiy tadqiqot ishlari va mazkur ilmiy adabiyotlar mualliflarining ilmiy qarashlari o'rganilgan. Xitoy banklarining yashil obligatsiyalar emissiyasi va 2018-2024-yillarda Xitoy banki tomonidan emissiya qilingan seriyali barqarorlik obligatsiyalari tahlili amalga oshirilgan. Amalga oshirilgan tahlillar orqali tegishli xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Eng. - The article analyzes the modern state of the world currency system, trends specific to the development of the international currency market, the geographical structure of the currency market circulation and the activities of its participants, as well as the changes in the main types of currency operations. Also, on the basis of the conducted research, the priority directions for strengthening the role of our country as a participant in the international currency market were proposed.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *yashil moliyalashtirish, obligatsiya, yashil obligatsiya, barqarorlik obligatsiyalari, iqlim o'zgarishi, energiya tejamkorlik, bank, Xitoy banklari, emissiya.*

❖ *green financing, bond, green bond, sustainability bonds, climate change, energy efficiency, bank, Chinese banks, issuance.*

Kirish.

Bugungi kunda yashil obligatsiyalar emissiyasi jahon moliya bozorlarida barqaror rivojlanish va ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun muhim vositaga aynib ulgurgan. Yashil obligatsiyalar investitsiyaviy kapitalni jalb qilish bilan birga ekologik va ijtimoiy samaradorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Xalqaro amaliyotda banklar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar yashil moliyalashtirishni keng qo'llab-quvvatlab, milliy bozorlarda ham ushbu yo'nalishni rivojlantirishga turtki bermoqda. Shuningdek, yashil obligatsiyalar emissiyasini o'rganish

mamlakatlar uchun iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda moliyaviy mexanizm sifatida katta ahamiyatga ega. Biroq mazkur jarayonlarni samarali tashkil etishda bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, yashil obligatsiyalar emissiyasi bo'yicha milliy qonunchilik va me'yoriy bazaning to'liq shakllanmagani sohadagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Yashil obligatsiyalar bo'yicha xalqaro standartlar bilan milliy amaliyot o'rtasida muvofiqlik yetishmasligi ham dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Investorlar uchun ishonchli ma'lumotlar bazasi va hisobot tizimlarining zaifligi bozorning shaffofligiga

salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ekologik loyihalarni baholash mezonlarining aniq belgilanmagani investitsiya qarorlarini qabul qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Yashil obligatsiyalar bozorida likvidlikning pastligi ularga bo'lgan talabni cheklaydi. Qolaversa, mahalliy investorlarning ekologik moliya vositalariga qiziqishi hali yetarli darajada shakllanmagan. Xalqaro tajribani o'rganish va milliy bozorga tatbiq etish sohani rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Yashil obligatsiyalar orqali iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirish mumkin. Shu boisdan Xitoy banklarining yashil obligatsiyalar emissiyasi tahlilini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchi olim A. Vahobov tadqiqotlariga ko'ra "Jahonda ilk bor yashil obligatsiya 2007-yilda Yevropa investitsion banki va Jahon banki tomonidan chiqarildi. 2013-yilda Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan chiqarilgan 1 mlrd. dollarlik yashil obligatsiyalar 1 soat ichida sotib bo'ldi. 2013-yilda Massachusetts shtati va Getyoborg shahri hokimiyatlari munitsipial obligatsiyalarni chiqardi. 2014-yildan e'tiboran yashil obligatsiyalar jadal suratlar bilan rivojlana boshladi. 2015-yil oxirida sotilgan yashil obligatsiyalar hajmi 100 mlrd. doll., besh yildan so'ng trillion doll.ga yetdi va yashil obligatsiyalar jahonning 26 savdo maydonlarida sotila boshlandi" [1]. 2015-yildan boshlab Xitoylik emitentlar ham yashil obligatsiyalar bozorida faollik ko'rsata boshlagan.

Xitoylik olimlar Chi-Chuan Lee va Chien-Chiang Lee o'z tadqiqotlarida yangi moliyaviy tizim sifatida «yashil» moliyaning yagona ta'rifi mavjud emasligini qayd etgan holda «yashil» moliya tushunchasiga oid 3 ta kontseptsyani ilgari suradi [2]:

❖ Iqlimni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilish, ifloslanishni nazorat qilish, resurslarni tejash va boshqa «yashil» loyihalarning amaliy

masalalari bilan shug'ullanadigan moliyaviy xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

❖ «Yashil» moliyani turli moliyaviy vositalar va mahsulotlar orqali ekologiya bilan bog'liq risklarning oldini olishga qaratilgan moliyaviy innovatsiyalar sifatida qaraydi.

❖ «Yashil» investitsiyalarni rag'batlantirish va atrof-muhitni himoya qilishga yo'naltirilgan kreditlar, qimmatli qog'ozlar, sug'urta, investitsiyalar va uglerod moliyasi orqali toza ekologik jamiyatni yaratishga yordam berishni ko'zda tutadigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Yana bir iqtisodchi olim E. Nosirovga ko'ra "Xitoyda 2015-yilgacha «yashil» obligatsiyalar bozori deyarli mavjud emas edi. Ammo, 2016-yilda Xitoyda umumiy hajmi 36,2 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan qiymatdagi «yashil» obligatsiyalar chiqarildi. Mazkur ko'rsatkich 2016-yildagi global emissiyaning 39 foizini tashkil etdi. Shu tariqa, Xitoy 2017-yilda 37,1 mlrd., 2018-yilda esa, 42,8 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan qiymatdagi «yashil» obligatsiyalarni muomalaga chiqarish hisobiga dunyoda ikkinchi o'rinda turadigan «yashil» obligatsiyalar bozori sifatida o'z mavqeini mustahkamladi" [3]. Shunday sharoitda Xitoydagi tijorat banklari tomonidan ham yashil obligatsiyalar yashil loyihalarni moliyalashtirish maqsadida faol joylashtirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Xitoy banklarining yashil obligatsiyalar emissiyasi tahlilini amalga oshirishda ilmiy abstraktsiyalash, analiz, sintez, tanlanma kuzatuv, qiyoslash, statistik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yashil obligatsiyalar bozori global moliya tizimining eng tez o'sib borayotgan segmentlaridan biriga aylanmoqda. Climate Bonds Initiative ma'lumotlariga ko'ra, "2023-yilda yashil obligatsiyalar hajmi 500 milliard AQSh dollaridan oshib, umumiy

jami emissiyalar 2,5 trillion dollardan ortiqni tashkil etdi" [4]. Bu ko'rsatkich atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi loyihalarga ulkan kapital jalb qilinganini anglatadi. Yashil obligatsiyalar mamlakatlar uchun iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda muhim moliyaviy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi o'zining Green Deal dasturini amalga oshirish uchun milliardlab yevro miqdorida yashil obligatsiyalar chiqarmoqda. Shu yo'l bilan davlat ekologik loyihalarni byudjet mablag'laridan tashqari qo'shimcha resurslar bilan ta'minlamoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar ham yashil obligatsiyalar bozorida ishtirok etishga harakat qilmoqda. Masalan, Xitoy, Hindiston va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar milliy moliya bozorlarida ushbu instrumentlarni joriy qilib, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiyaga sarmoyalarni ko'paytirishni maqsad qilgan.

Shu alohida qayd etish lozimki, mazkur sohada qator muammolar ham mavjud. Birinchisi - shaffoflik muammosi, ya'ni ba'zan emissiya qilingan yashil obligatsiyalardan tushgan mablag'lar haqiqatan ham ekologik loyihalarga yo'naltirilganini to'liq tasdiqlovchi ma'lumotlar yetarli emas. Ikkinchisi - standartlar turlicha bo'lishi, chunki turli mamlakatlarda yashil loyihalarni baholash mezonlari va talablari farq qiladi. Uchinchi muammo - likvidlik, ayniqsa kichik moliya bozorlarida yashil obligatsiyalarga talab hali

yetarli emas. To'rtinchidan, yashil obligatsiyalardan foydalanishda investorlar uchun ma'lumotlarning shaffofligi va hisobotlarning sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli International Capital Market Association (ICMA) tomonidan ishlab chiqilgan Green Bond Principles (Yashil obligatsiyalar tamoyillari) hujjati xalqaro me'yoriy asos sifatida keng qo'llanmoqda.

Xitoy so'nggi o'n yillikda jahondagi eng yirik yashil obligatsiyalar emitentiga aylandi va bu jarayonda banklar yetakchi rol o'ynamoqda. Davlat siyosatida "yashil moliya" kontseptsiyasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilab, milliy moliya institutlari uchun maxsus qoidalar, rag'batlantirish mexanizmlari va standartlar ishlab chiqilgan. Xitoy banklari yashil obligatsiyalar orqali moliya bozorlariga katta hajmda resurslarni jalb qilishga muvaffaq bo'lmoqda. Masalan, Industrial and Commercial Bank of China (ICBC) va Bank of China kabi yirik moliya institutlari milliardlab dollarlik yashil obligatsiyalar emissiya qilib, ularni qayta tiklanadigan energiya, suv resurslarini boshqarish, transport va energiya samaradorligi kabi loyihalarga yo'naltirgan. Xitoy banklari yashil obligatsiyalarni milliy va xalqaro formatda emissiya qilmoqda. Milliy bozorda asosan yuanda (CNY) chiqarilsa, xalqaro bozorlarida AQSh dollari va yevro valyutasida emissiya amalga oshirilmoqda. Bu esa xalqaro investorlar uchun keng imkoniyat yaratmoqda.

1-jadval

Xitoy banklarining yashil obligatsiyalar emissiyasi tahlili (2024-yil holatiga) [5]

Bank nomi	Emissiya hajmi (mlrd. AQSh dollari)	Asosiy yo'nalishlar	Valyuta
Industrial and Commercial Bank of China (ICBC)	19.9 (xalqaro), 60 (ichki bozor, RMB)	Qayta tiklanadigan energiya, transport	CNY, USD
China Development Bank (CDB)	18+	Infratuzilma, barqaror transport	CNY
Agricultural Bank of China (ABC)	10	Qishloq xo'jaligi va barqaror rivojlanish	CNY, USD
China Construction Bank (CCB)	12	Energiya tejamlor binolar, shahar infratuzilmasi	CNY, USD

Xitoy banklarining yashil obligatsiyalar emissiyasi tahlili mamlakatda barqaror


rivojlanish va ekologik loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan

strategiyaning muhim qismi hisoblanadi. Industrial and Commercial Bank of China (ICBC) eng yirik emitent sifatida qayta tiklanadigan energiya va transport sohalariga katta mablag' yo'naltirmoqda. Bank of China xalqaro bozorlarda ko'p valyutali emissiya orqali suv resurslari va energiya samaradorligiga oid loyihalarni qo'llab-quvvatlamoqda. China Development Bank (CDB) esa asosan infratuzilma va barqaror transport yo'nalishlariga sarmoya kiritib, davlat strategiyasida yetakchi o'rin egallaydi. Shuningdek, Agricultural Bank of China hamda China Construction Bank qishloq xo'jaligi, shahar infratuzilmasi va energiya tejankor binolarga yo'naltirilgan loyihalar bilan yashil moliya bozorida faol ishtirok etmoqda (1-jadval).

Xitoyda yashil obligatsiyalarning samaradorligini ta'minlash maqsadida regulyatorlar tomonidan maxsus standartlar ishlab chiqilgan. Biroq xalqaro mezonlar bilan farqli jihatlari mavjud: masalan, Xitoyda

energiya samaradorligi yoki ifloslanishni qisqartirishga qaratilgan ba'zi loyihalar yashil deb tasniflansa, xalqaro standartlarda ular bahsli hisoblanishi mumkin. Xitoy banklarining yashil obligatsiyalar emissiyasidagi asosiy muammolardan biri – shaffoflik va hisobot berish darajasi hisoblanadi. Xalqaro investorlar ko'proq aniq ma'lumot va standartlashtirilgan hisobot talab qiladi. Shu sababli so'nggi yillarda Xitoy regulyatorlari xalqaro tajribalarni joriy etishga harakat qilmoqda. Xitoy banklari emissiya qilgan yashil obligatsiyalar orqali jalb qilingan mablag'lar asosan "yashil infratuzilma", ya'ni metropolitenlar, barqaror transport va qayta tiklanadigan energiya sohasiga sarflanmoqda.

Xitoy banki (Bank of China) ham boshqa yirik xitoy banklari qatori barqarorlik obligatsiyalari, shu jumladan yashil obligatsiyalarning faol emitenti hisoblanadi. Buni quyidagi tahlillardan ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2018-2024-yillarda Xitoy banki tomonidan emissiya qilingan seriali barqarorlik obligatsiyalari tahlili, mln. yuan [6]


Xitoy banki va uning tarmoqlari tomonidan joylashtirilgan seriali barqarorlik obligatsiyalari tahliliga ko'ra, 2022-yilda eng yuqori 25,861 milliard yuandan ortiq barqarorlik tipidagi obligatsiyalar joylashtirilgan. Tahlil qilingan davrda eng kam

joylashtirish 2019-yilda kuzatilgan va qariyb 6,38 milliard yuanni tashkil etgan. Umuman 7 yil davomida 79,786 milliard yuandan ortiq barqarorlik obligatsiyalari joylashtirilganligi, o'z navbatida xuddi shuncha miqdorda bank tomonidan yashil va barqarorlik loyihalari

obligatsiyalar vositasi
moliyalashtirilayotganligidan dalolat beradi.

Barqarorlik obligatsiyalarining alohida tiplari nuqtai nazaridan Xitoy banki emissiyasida yashil, ko'k, barqarorlik va iqlim obligatsiyalari joylashtirilganligiga guvoh

bo'lishimiz mumkin. Mazkur jihat yashil va barqaror iqtisodiyotni moliyalashtirishda hamda qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarni diversifikatsiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi (2-rasm).



2-rasm. 2018-2024-yillarda Xitoy banki tomonidan emissiya qilingan seriali barqarorlik obligatsiyalari hajmi, mln. yuan [6]

Yuqoridagi rasm tahlillaridan ayon bo'ladiki, Xitoy banki seriali barqarorlik obligatsiyalari tarkibida yashil obligatsiyalar eng yuqori ulushga ega bo'lib, 79,786 milliard yuandan ortiq hajmga nisbatan 73,84 foizlik ulush aynan yashil obligatsiyalarga tegishlidir. Keyingi o'rinni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish doirasida joylashtirilgan barqarorlik obligatsiyalari egallaydi. Bank tomonidan joylashtirilgan ko'k obligatsiyalar bevosita dengiz va okean ekotizimida amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish maqsadida joylashtirilgan bo'lsa, iqlim obligatsiyalari iqlim o'zgarishlarining oldini olish loyihalarini moliyalashtirish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozoriga taklif qilingan. Mazkur obligatsiyalar oxir-oqibat Xitoyda yashil iqtisodiyotning o'ta yuqori darajada rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Boshqa tomondan qimmatli qog'ozlar bozorida yashil instrumentlar bilan operatsiyalar ko'lami va doirasini ham kengaytirmoqda.

Xulosa va takliflar.

Xitoy banklarining yashil obligatsiyalar emissiyasi tahlili asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Xitoy banklari yashil obligatsiyalari mamlakatda barqaror rivojlanish va ekologik loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan strategiyaning muhim qismidir. Industrial and Commercial Bank of China (ICBC) eng yirik emitent sifatida qayta tiklanadigan energiya va transport sohalariga katta mablag' yo'naltirmoqda. Bank of China xalqaro bozorlarida ko'p valutali emissiya orqali suv resurslari va energiya samaradorligiga oid loyihalarni qo'llab-quvvatlamoda. China Development Bank (CDB) esa asosan infratuzilma va barqaror transport yo'nalishlariga sarmoya kiritib, davlat strategiyasida yetakchi o'rin egallaydi. Shuningdek, Agricultural Bank of China hamda China Construction Bank qishloq xo'jaligi, shahar infratuzilmasi va energiya tejankor binolarga yo'naltirilgan loyihalar bilan yashil moliya bozorida faol ishtirok etmoqda.

2. Xitoy banki va uning tarmoqlari tomonidan joylashtirilgan seriali barqarorlik obligatsiyalari tiplari sifatida yashil, ko'k, barqarorlik va iqlim obligatsiyalari joylashtirilganligini alohida ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

3. Xitoy banki seriali barqarorlik obligatsiyalari tarkibida yashil obligatsiyalar eng yuqori 73,84 foizlik ulushga ega bo'lib, bevosita yashil loyihalarni moliyalashtirish maqsadida joylashtirilganligini ta'kidlashimiz lozim bo'ladi. Keyingi o'rinni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish doirasida joylashtirilgan barqarorlik obligatsiyalari egallagan. Bank

tomonidan joylashtirilgan ko'k obligatsiyalar bevosita dengiz va okean ekotizimida amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish maqsadida joylashtirilgan bo'lsa, iqlim obligatsiyalari iqlim o'zgarishlarining oldini olish loyihalarini moliyalashtirish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozoriga taklif qilingan.

4. O'zbekistondagi tijorat banklari ham yashil obligatsiyalar bilan birga barqarorlik va iqlim obligatsiyalari emissiyasini amalga oshirishi va muvaffaqiyatli joylashtirishlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vahobov A. Jahonda yashil investitsiyalash bozorining amalga oshirish dastaklari va rivojlanish tendensiyalari. // International Scientific Journal «SCIENCE AND INNOVATION» Special Issue: Green Energy And Economics May 2-3, 2025. – P. 43-49.

2. Chi-Chuan Lee, Chien-Chiang Lee. How does green finance affect green total factor productivity? Evidence from China // Energy Economics. Vol. 107. 2022. www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0140988322000469

3. Nosirow E. "Yashil" moliyalashtirishni rivojlantirish: ilmiy va nazariy yondashuvlar. // International Finance & Accounting. Issue 6, December 2024. <https://interfinance.tsue.uz/wp-content/uploads/2025/01/%Do%AD%Do%9D%Do%BE%D1%81%Do%B8%D1%80%Do%BE%Do%B2.pdf>

4. Climate Bonds Initiative. (2023). Green Bond Market Summary 2023. <https://www.climatebonds.net/resources/reports/green-bond-market-summary-2023>

5. ICBC Green Bond Report 2023 – <https://v.icbc.com.cn/userfiles/Resources/ICBCLTD/download/2024/2023GreenBondR20240702.pdf>; China Development Bank – <https://www.cdb.com.cn/English/shzr/lxsd/>; Climate Bonds Initiative – <https://www.climatebonds.net/resources/reports>; CCB Green Finance – <https://www.ccb.com/en/investor/greenfinance.html> - Manbalari, ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

6. Annual Report on Bank of China's Sustainability Series Bonds - <https://pic.bankofchina.com/bocappd/report/202504/P020250411324166906433.pdf>